



TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

1991-yildan
chiqa boshlagan

2021-yil. 6-son

ISSN 2010-5584

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz til_adabiyot@umail.uz www.tilvaadabiyot.uz

ALEKSANDR SERGEYEVICH PUSHKIN TAVALLUDINING 222 YILLIGI



BULBUL VA GUL

*Bahor chog'ida xoli bog'da bir zulmatli tun erdi,
G'arib bulbul fig'on aylab, "Gulim, rahm aylagil", derdi.
Biroq ul gul quloq solmas edi faryod-u afg'ona,
Faqat orom olardi noladin to'lg'ona-to'lg'ona.*

*Seni hech sevmagan bir gul uchun, ey shoirim, sen ham
Yonarsan, o'rtanarsan, yod etarsan tinmayin bir dam.
Qo'y endi, behuda dod etma, ohing unga yetmaydi,
Qaraysan, yashnagan bir gul, faqat dodingga yetmaydi.*

Cho'lpon tarjimai

Ushbu sonda



Metodik tavsiya

3-bet

Onlayn to'garak mashg'ulotlarni
tashkil etishda masofaviy didaktik
o'yinlarning afzalliklari



Delzarb mavzu

6-bet

Prinsipning o'zbekchasi – tutum,
tamoyil emas!



Ilg'or pedagogik texnologiyalar

9-bet

Adabiyot darslarida o'quvchilarning
tahlil qila olish ko'nikmasini
shakllantirish



Tadqiqotlar

26-bet

Linguoculturological approach to
teaching a language



Методика. Опыт

65-bet

Развитие лингвистической
компетенции студентов-филологов при
изучении темы
«Ташкент – столица нашей Родины»



Литературоведение

84-bet

Музыка и ее роль в творчестве Гоголя

Dildora TO'RAYEVA,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Amaliy tilshunoslik va lingvodidaktika kafedrasasi o'qituvchisi

O'ZBEK TILIDAGI SHAXSIY YOZISHMALARDA NOADABIY FONETIK UNSURLARNING LINGVISTIK EKSPERTIZASI

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tilidagi elektron shaxsiy yozishmalarning lingvistik ekspertizasi haqida mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: lingvistik ekspertiza, shaxsiy yozishma, noadabiy fonetik hodisa, tovush tushishi, tovush almashinishi, tovush ortishi, sinkopa, apokopa, eliziya, epenteza.

Annotation. The article discusses the linguistic expertise of personal correspondences in Uzbek.

Key words: linguistic expertise, personal correspondence, non-literature phonetic phenomenon, sound omission, sound exchange, sound addition, syncope, apocope, elision, epenthesis.

Аннотация. В статье рассматривается лингвистическая экспертиза личных электронных писем на узбекском языке.

Ключевые слова: лингвистическая экспертиза, личная переписка, нелитературное фонетическое явление, падение звука, обмен звука, добавление звука, синкопа, апокопа, элизиция, эпентеза.

Ma'lumki, nutqda so'z, frazema, gaplar o'z-o'zidan shakllanmaydi. Ular unli va undosh tovushlarsiz yuzaga chiqqa olmaydi. Tovushlar esa turli fonetik jarayonlarga uchrab, o'zining hududiy xarakterini shakllantiradi. Demak, insoniyat borki, nutqiy jarayon va undagi noadabiy fonetik hodisalar uchrab turadi. Zero, fonetik jarayonlar nutqning ixchamligi, aniq va ravonligini ta'minlab turuvchi bir vositadir.

Nutqdagi fonetik hodisalarning o'ziga xos jihati shundaki, ayrim fonetik hodisaga uchragan so'zlar yozuvda aks etishi va me'yor darajasiga ko'tarilishi mumkin. Bu jarayon imloviy tamoyillar (fonetik, morfologik, shakli va tarixiy-differensial)ning yuzaga kelishiga zamin hozirlaydi. Masalan, *sanoq*, *yasha*, *o'yna* kabi. Garchi *sanoq* va *yasha* so'zlarida tovush almashinishi yuz bersada, yozuvda aytilganiga muvofiq aks etadi. O'yla so'zi esa o'zakda tovush tushish hodisasi bilan birgalikda yozma nutqda namoyon bo'ladi. Ammo shunday so'zlar qatori borki, ularda fonetik hodisalar kuzatilsa ham, yozuvda adabiy me'yorga xos tarzda aks etadi, ya'ni bunday birliklar doimo imlo qoidalariga muvofiq yoziladi. Masalan, *ketti* – *ketdi*, *tussiz* – *tuzsiz*, *o'shaydi* – *o'xshaydi* kabi. Demak, bunday birliklar nutqning ikki shaklida ham adabiy til me'yorlaridan chetga chiqqan, ya'ni noadabiy fonetik unsurlar sifatida namoyon bo'ladi. Albatta, bunda ilmiy, publitsistik va rasmiy-idoraviy uslubdagi matnlar emas, balki so'zlashuv uslubiga xos og'zaki va yozma nutq ko'rinishlari ahamiyatlidir.

Bugunga kelib tilshunoslikning turli tarmoqlarida ham tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Taraqqiyot pirovardida inson omili turar ekan, albatta, rivojlanishdagi ijobiy va salbiy natijalar bab-baravar bo'y ko'rsatadi.¹ Sud-huquq tizimi va tilshunoslikning integratsiyalashuvi natijasida yurislolingvistika yuzaga keldi. Dastlab xorijiy mamlakatlarda og'zaki nutqning lingvistik tahlili rivoj topdi va bu jarayon bevosita fizika, fiziologiya fanlarining huquq-tartibot sohalari bilan hamkorligini yuzaga keltirdi.² Keyinchalik qo'lyozma matnlar, SMS xabarlar,

Whats up, Wiber, Telegram, Instagram ijtimoiy tarmoqlaridagi sud jarayoni uchun muammoli shaxsiy yozishmalarning lingvistik tahlili rivojlandi.³



Abdurashid Barakoev

Tuxri kilgan shu ayolni duxi etibti aytishga malades palistina musurmon va suniy masxab silarni gaplarigdan yaxudlar yakinrok silarga xotya man yulduzni fanati emas apsalutno no odam tamondan norma pastupkasi malades koganlar kutni kisib utiriglar ayniksa dasmol odamlar ayolni askarblat kimaglar

1 дн Нравится Ответить 3



Komola Karimova

БУХОРО ЯХУДИЙЛАР БИР ЎЗЛИГИНИ ТАНИШТИРИШСИН, БИЗ ХАМ ТАНИШИБ ОЛАЙЛИКИ

1 дн Нравится Ответить



Ravshan Khodjaev

Olisib o'tirsez yaxshi bo'ladi o'zizga

1 дн Нравится Ответить 1



Aziz Raupov

Yulduz opa aslo kechirim suramaneg bu Yahudilardan siz turi gapni gapirgansiz

Ushbu yozishmada *to'g'ri* so'zi ikki xil variantda qo'llangan. Samarqandlik shaxs *g'* va *x*, *o'* va *u* tovushlarining o'rnini almashtirgan holda qo'llagan. Oxirgi yozishma muallifi ham samarqandlik bo'lib, u *to'g'ri* so'zini *turi* shaklida ifodalagan. Bunda *g'* tovushining tushib qolishi, *o'* undoshining *u* undoshiga almashinuvi yuz bergan. Har ikkala yozishma muallifi bir hududdan bo'lsa-da, nutqiy hosilalarida farq mavjud. Rus tilini qo'shib gapirishiga qaraganda, 1-shaxs rusiyazabon hisoblanadi. Rus tilida *g'* va *o'* tovushlarining yo'qligi ham buning ikkinchi asosini yuzaga keltiradi.

Ikkinchi shaxs nutqida *o'zligini* so'zi keltirilgan. Matn mazmunidan aniq bo'ladiki, *-ligi* III shaxs ko'plik shakli – *-lari* ning fonetik hodisaga uchragan variantidir.

Toshkent shevasida egalik shakllari I shaxs ko'plikda -vu:z, -vuzd; II shaxs ko'plikda -i:z, -yiz, -yle, -ligi kabi variantlarda uchraydi.⁴

Uchinchi shaxs nutqida o'tirsangiz so'zi o'tirsez shaklida qo'llangan. Bunda -sa shart mayli va II shaxs ko'plik sondagi shaxs-son qo'shimchasining birikuvi natijasida tovush moslashuvi hodisasi yuzaga kelgan. Zero, so'z oxirida kelgan i tovushi e tovushi sifatida talaffuz qilinadi.⁵ Masalan, *kepte, kelde* kabi. Yana o'zingiz so'zi o'ziz tarzida qo'llanilgan, ya'ni shevalarda -ingiz II shaxs egalik qo'shimchasi o'rniga -iz shaklini qo'llash hollari ham kuzatiladi. Bu, ko'pincha, Farg'ona, Andijon, Marg'ilon kabi adabiy tilga yaqin shevalarda uchraydi.

Sabrina Samandarova
Bizda manimcha adolat bulmasa kirak erkaklar silarga nima bulyapti 9 yoshli qizdan nima kutush mumkin ular hali gudaku kim qilgani topilmaydi topilsa ham oshkor qilmaydi

Ushbu yozishmada *manimcha, kirak, silarga, bulyapti, kutush, gudaku* kabi fonetik hodisaga uchragan so'zlar bor. *Manimcha – menimcha, bulyapti – bo'lyapti, gudaku – go'dak-ku* so'zlarida tovush almashinish hodisasi ro'y bergan. Unlilar talaffuzi bilan bog'liq hodisa singarmonizm bo'lib, u ikki tarkibiy qismdan iborat: lab garmoniyasi va tanglay garmoniyasi. Tanglay garmoniyasida qattiq va yumshoq unlilar hisobga olinadi. Shuningdek, adabiy tilda *kerak* so'zi *kirak* tarzida reduksiya hodisasiga uchragan holda yozilgan. Bunda ham singarmonizmning lab garmoniyasiga ko'ra o'zgarish sodir bo'lgan. Lab garmoniyasi so'zlarning o'zagida lablangan (i, e, a) unlilar mavjud bo'lsa, so'z oxiridagi lablangan (u, o', o) unlilarni o'ziga moslashtirib, ohangdosh qilib olish hodisasidir. Yozishmada aks etgan *silarga* so'zida o'zak qismda z tovush tushish hodisasi yuz bergan.



Dilafuz Fayziyeva
YUTubda videyosi oqan kim kotiligini bilvalasilardur balkim

14 Hpaararar O'raararar



Rachal Kirak
Andijonda begunohlarni qamab, ashaddiy jinoyatchilarga tegmasakanda. Anu kelinchakni zo'rlaganlarga xo'rozqand oberiwgandir unda

Yozishmada 1-shaxs *vidiyosi, kotiligini, bilvalasilardur* so'zlari qo'llangan. Keltirilgan *vidiyo* (ad. *video*) so'zida qator unlilar mavjudligi va bu so'z o'zbekcha emasligi hisobiga talaffuz etish qiyinchilik tug'diradi. O'zbek tili uchun yot bo'lgan so'zlarning talaffuz qulayligiga erishish uchun qator unli yoki undoshlar orasiga bir tovush ortirilishi kuzatiladi va bu fanda epenteza hodisasi deb yuritiladi. Matndagi so'zlarning qo'llanishi, qo'shimchalarning birikish usullaridan ma'lum bo'ladi, yozuvchi – o'zga tili shaxs. *Kotiligini* so'zida q o'rnida k almashinib qo'llangani bunga isbot. Yoki bu tojik va o'zbek tili, ya'ni ikki tili shaxsning nutqi. Shuningdek, so'z o'rtasida l tovushining tushib qolish hodisasi yuz bergan. Yozuvchi aniq o'zga tili shaxs, chunki *bilvalasilardur* so'zida so'zlararo eliziya hodisasi mavjud, ammo qo'shimchalarning sintagmatik aloqasi to'g'ri shakllantirilmagan. Adabiy tilda *bilib olasizlar* ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasiga teng. Fe'l -sizlar II shaxs ko'plikdagi

shaxs-son qo'shimchasi bilan shakllangan, ammo yana birlikka -dur kesimlik shaklining qo'shilishi muammoli. Eliziyadan tashqari tovush tushishi (z tovushi), qo'shimchada reduksiya hodisasi yuz bergan.

II shaxs nutqida esa *jinoyatchilarga, tegmasakanda, anu, oberishgandir* so'zlari uchraydi. *Jinoyatchilarga* so'zida so'z o'rtasida r tovushi tushgan. Shuningdek, matnda *tegmasakanda, anu, oberishgandir* so'zlarida eliziya hodisasi kuzatiladi. Adabiy me'yor bo'yicha *tegmas ekanda, ana u, olib berishgandir* birligi bilan ifodalanadi. Eliziya fonetik jarayoni deyarli barcha shevada uchraydi va u ikki usulda amalga oshadi. Birinchi usulda mustaqil ma'noli so'zlar o'rtasida tovushlar muvofiqlashuvi yuz beradi: *o'ta olmadi – o'tolmadi, kiy olmadi – kiyolmadi, bu yer – bu:r, shu yer – she:r kabi*. Ikkinchi usulga ko'ra, mustaqil ma'noli so'zlarga to'liqsiz fe'llarning muvofiqlashuvi sodir bo'ladi: *bo'lar ekan – bo'leykan, kelar ekan – kelaykan* kabi.

Tadqiqotni amalga oshirish uchun, avvalo, noadabiy fonetik hodisaga uchragan so'zlar qatnashgan yozishmalar ajratib olindi. Yozishmalarning hammasi Kun.uz saytidagi "Samarqand viloyati Paxtachi tumanida yo'lni sababsiz to'sib qo'ygan, "kattakonlarga" signal chalgan haydovchining mashinasi asossiz jarima maydoniga joylashtirildi" xabarnomasiga tegishli. Saralab olingan yozishmalarda xoh so'zda, xoh qo'shimchada bo'lsin, har bir noadabiy fonetik jarayon alohidalandi va, shu asosda, tasniflandi. Bundan ayon bo'ladi, fonetik hodisalarning hammasi ham yozishmalarda aks etmas ekan. Apokopa, metateza, epiteza va proteza fonetik jarayonlari tahlil qilinayotgan yozishmalarda umuman aks etmagan. Shuningdek, fonetik hodisaga uchragan va adabiy tilda aks etadigan, adabiy me'yorlar bilan tartiblashtirilgan so'zlar ham tahlilga tortilmadi. Zotan, o'rganish obyekti noadabiy fonetik hodisalar sanaladi. Shuning uchun ham adabiy tilda aks etmaydigan, so'zlashuv uslubiga xos bo'lgan noadabiy unsurlarning miqdori aniqlandi va tasniflandi. Bir xabarnoma ostida yozuvchilarning yozishmalarida uchragan noadabiy unsurlarning miqdori matematik foizda hisoblandi:

T/r	Noadabiy fonetik hodisalar	Miqdori	Foiz
1.	Tovush ortishi	3	1,9
2.	Epenteza	4	2,5
3.	Sinkopa	5	3,1
4.	Reduksiya	20	12,5
5.	Singarmonizm	14	8,8
6.	Eliziya	7	4,4
7.	Tovush almashinishi	61	38,1
8.	Tovush tushishi	46	28,8
Jami		160	100,0

Umumiy hisobda 74 ta shaxsning yozishmalari tarkibidan 160 ta noadabiy fonetik hodisalar saralandi. Noadabiy tovush ortishi, tovush tushishi, tovush almashinishi, eliziya, epenteza, sinkopa, reduksiya va singarmonizm hodisalari adresantlar nutqida mavjud.

Yozishmalarda eng faol noadabiy unsur sifatida tovush almashinishi aniqlandi va u 38,1 foizni tashkil etdi. Eng kam uchragan noadabiy fonetik unsur tovush ortishi jarayoni bo'lib, 1,9 foizga teng bo'ldi. Demak, shaxsiy yozishmalarda noadabiy tovush almashinishi jarayoni

ko'p kuzatiladi. Bu koeffitsiyent muammoli shaxsiy yozishmalarning lingvistik tahlili uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, insonning shaxsiyati, xarakter-xususiyati, ijtimoiy mansubligi, ilmiy salohiyati uning yozishmalarida aks etadi.

¹ Otamirzayeva S., Yusupova M. O'zbek tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2004. 103-bet.

² To'rayeva D. Linguistic expertise as a branch of legal linguistics // *Academica*. Vol.10, Issue 12, December 2020; To'rayeva D. Shaxsiy yozishmalarda lingvistik ekspertiza mohiyati // O'zbekiston milliy universiteti xabarlari, 2021. [1/4] ISSN 2181-7324. 268–271-betlar.

³ Баранов А.Н. Лингвистическая экспертиза текста: теория и практика [Текст]: учеб. пособие. – Москва: Флинта: Наука, 2007. – 592 с.; Бельчиков Ю.А. Методические рекомендации по вопросам лингвистической экспертизы спорных текстов СМИ [Текст] // Филологические науки. Вопросы теории и практики, 2014. №10–1 (40). – С. 27–29.

⁴ Голев Н.Д. Юридический аспект языка в лингвистическом освещении. Юрислингвистика: проблемы и перспективы: Межвузовский сборник научных трудов / Под ред. Н.Д. Голева. – Барнаул: Изд-во Алт. ун-та, 1999. – С. 7–38.; Голев Н.Д. Антиномии русской орфографии. – Москва: Едиториал УРСС, 2004. – 160 с.

⁵ Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent, 2013. 22-bet.

Nigora ADIZOVA,

Buxoro davlat universiteti katta o'qituvchisi (PhD)

QIZIQMACHOQLARDA YANGA, OQSOQOL, BUVA VA MIFOLOGIK OBRAZLARNING QO'LLANILISHI

Annotatsiya. Maqolada dunyo folklorshunosligida bolalar tarbiyasi, ularning badiiy tafakkuri va estetik didini o'stirish maqsadida yaratilgan xalq og'zaki ijodiga aloqador janrlarning yuzaga kelish jarayoni hamda tarixiy va poetik tadrijiy rivojini aks ettiruvchi manbalarni to'plash, nashr qilish va tadqiq etishga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: qiziqmachoq, motiv, obraz, qo'shiq, tanosib, epizod, sujet, afsona, ertak, mif, aldanmachoq, talmeh, doston.

Annotation. This article pays special attention to the collection, publication and research of sources reflecting the process of emergence of genres associated with folklore and historical-poetic evolution of folklore, created to teach children world folklore, and develop their artistic thinking and aesthetic taste.

Key words: curiosity, motive, image, song, acquaintance, episode, plot, legend, fairy tale, myth, deception, talmeh, epic.

Аннотация. В статье особое внимание уделяется сбору, публикации и исследованию источников, отражающих процесс возникновения жанров, связанных с фольклором и историко-поэтической эволюцией фольклора, созданных для обучения детей по образцам мирового фольклора, развития их художественного мышления и эстетического вкуса.

Ключевые слова: прибаутка, мотив, образ, песня, знакомство, эпизод, сюжет, легенда, сказка, миф, обман, талмекс, эпос.

Qiziqmachoqlarning badiiyati boshqa erkalovchi qo'shiqlar badiiyatidan birmuncha mukammalligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ular bolalarni estetik tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularda bolalarga yaqin va tushunarli an'anaviy obrazlar qo'llanishi kuzatiladi. Qiziqmachoqlarda, asosan, bir voqelik ikkinchisiga ulanib borib, fikriy zanjirli bog'lanishni hosil qiladi. Shuningdek, ularda obrazdan obrazga, fikrdan fikrga ko'chib borish kuzatiladi.

Qiziqmachoqlar garchi bolalar uchun yaratilgan bo'lsa-da, ularda bola obrazidan tashqari kattalar obrazi ham alohida o'rin tutadi. Shuningdek, insonlar, hayvonlar, narsa-hodisalar obrazi ifodalanganligi kuzatiladi. Shuning uchun qiziqmachoqlarning obrazlar olami rang-baranglik kasb etadi.

Yangi – qiziqmachoqlarda eng ko'p uchraydigan obrazlardan biri. Ularda yanga obrazi, ko'pincha, tanqid qilinishi kuzatiladi. Ayniqsa, qo'ldan ish kelmaydigan,

no'noq, kaltafahm yangalar fosh etiladi:

*Ostonaning oq toshi,
Yangamning qalam qoshi.
Yangamsan-o yangamsan,
Kiyim bichar bilmaysan,
Kiyimingni ko'tarib,
Xon oldiga bormaysan.*

Qizlar to turmushga chiqquniga qadar ro'zg'or ishlarini, ayniqsa, taom tayyorlash, bichish-tikish yumushlarini o'rganib olmoqlari lozim. Aks holda ular borgan joyida ana shunday malomatga qolib yurishadi.

*Apishdi-yu apishdi,
Yangamning oshi pishdi.
Akamga qo'ygan oshni
Hakka cho'qilab qochdi...*



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxatga olingan.

2021-yil. 6-son.

1991-yildan chiqib boshlagan

TIL VA ADABIYOT

TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПЕРЕПОДАВАНИЕ
ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

LANGUAGE AND LITERATURE

TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Sherzod SHERMATOV
Dilshod KENJAYEV
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Nizomiddin MAHMUDOV
Nargiza RAHMONQULOVA
Yorqinjon ODILOV
Mamatqul JO'RAYEV
Nasirullo MIRKURBANOV
Jabbor ESHONQULOV
Valijon QODIROV
Baxtiyor DANIYAROV
Abdurahim NOSIROV
Tolib ENAZAROV
Ravshan JOMONOV
Zulxumor MIRZAYEVA
Nilufar NAMOZOVA
Lutfullo JO'RAYEV
(bosh muharrir o'rinbosari)

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA
Nigora URALOVA
Yuliya MUSURMANOVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri Matbuotchilar ko'chasi
32-uy.

Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10,
(71) 233-03-45,
(71) 233-03-67.

e-mail: til_adabiyot@umail.uz
veb-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnalidan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalari bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Bosmaxonaga 2021.17.06.da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x84 1/8. Shartli bosma tabog'i 6,0. «Times» garniturasida. 10, 11 kegl. "PRESS-PRINT" bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent vil., Yuqori Chirchiq tum., Yik-ota, Oqibat ko'chasi 50-uy. Buyurtma ___ Adadi 4930 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

TIL VA ADABIYOT
TA'LIMI

jurnali

REPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING

MUNDARIJA

METODIK TAVSIYA

Dildora AZIMOVA. Adabiyotshunosligimiz faylasufi 90 yoshda!	2
Dildor NURMUHAMMEDOVA. Onlayn to'garak mashg'ulotlarni tashkil etishda masofaviy didaktik o'yinlarning afzalliklari	3
Konisbay YUSUPOV. Akademik litseylarda qoraqalpoq adabiyoti bo'yicha darsdan tashqari mashg'ulotlar	5

DOLZARB MAVZU

Baxtiyor DANIYAROV. Prinsipling o'zbekchasi – tutum, tamoyil emas!	6
--	---

ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Shahnoza SHARIPOVA. Adabiyot darslarida o'quvchilarning tahlil qila olish ko'nikmasini shakllantirish	9
Umida MADAMINOVA. Effective assessment techniques for online teaching	10

TADQIQOTLAR

Feruza TAIROVA. Tilshunoslikda kommunikativ-pragmatik vaziyat	12
Amirulla ABDULLAYEV. Harakat tarzi ma'nosini ifodalovchi leksemalarning leksikografik talqini	13
Dildora TO'RAYEVA. O'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy fonetik unsurlarning lingvistik ekspertizasi	17
Nigora ADIZOVA. Qiziqmachoqlarda yanga, oqsoqol, buva va mifologik obrazlarning qo'llanilishi	19
Ma'rifat SHUKUROVA, Ra'no YULDASHEVA. O'qituvchilar kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish	21
Kamila XASANOVA. Ilmiy olamda lingvomadaniyatshunoslikning o'rni	23
Nomoz QOBILOV. Tagma'no – semantik ma'no ifodalovchi vosita sifatida	24
Gulchekhra KHAZRATOVA. Linguoculturological approach to teaching a language	26
Faxriniso LUTFILLOYEVA. Yapon tili iyerogliflarini mnemotexnika asosida onlayn o'qitish usuli	28

TAHLIL

Xolmo'min FAYZULLAYEV. Adabiyotda inson va tabiat muammosi: tadrij, sintez, takomil	30
Ayimxan ESHNIYAZOVA. Ijodkor badiiy-estetik konsepsiyasida adabiy ta'sir masalasi	34

TARJIMASHUNOSLIK

Abdurasul BULTAKOV, Shuhrat TASHPULATOV. Nemis va o'zbek tillarida satira, hajviya va yumorning lingvomadaniy xususiyatlari	35
Barno BO'RONOVA. Badiiy tarjimada nom tushunchasidagi anqlik mezon	37
Muqaddas OQMAMATOVA. Lirik matn va milliy-madaniy frazeologizm	38
Nigina KODIROVA. Linguocultural aspects of colour simile translation	40

KICHIK TADQIQOTLAR

Safo MATJON, Inobat MADRAHIMOVA. Normurod Norqoblovlarning animistik asarlarida milliylik	42
Baxtiyor XOLMUXAMEDOV. Leksemalashuv hodisasi – o'zbek tilining boyib borishidagi asosiy omillardan biri	43
Mahbuba ISMONALIYEVA. Polvon obrazi vositasida xalqona tasvirlar va ma'naviy qadriyatlar ifodasi	44
Surayyo MUQIMOVA. Iskandar devori – muhofaza devori	46
Tursingul OTAROVA. Tenebaya Sarsenbayevning badiiy so'z qo'llash mahorati	47
Muyassar IBROHIMOVA. Gadoly ijodida dunyo obrazi talqini	49
Navruz MADALOV. Using types of non-traditional lectures to improve language skills in adult students	50
Dilshod XURSANDOV. Poetik g'oya va shoirideali	51
Nilufar KADIROVA. Kitobxon javobi – o'quvchi faolligining muhim omili	53
Boburjon BOYMATOV. Kinoqissa – adabiyot farzandi	55
Sharofiddin JALILOV. "Devoni Jaliliy"ning matniy xususiyatlari	57
Davronbek QURBONOV. Chegaralangan qatlam so'zlarining lingvomadaniy va lingvopoetik xususiyatlari	58
Abdurayim TURSUNOV. Baxshichilik san'ati fidoyisi	59
Khilola BAKIROVA. The role of foreign language of specialty in the development of professional competence of the future ESP specialist	61

QO'SHIMCHA MATERIAL

Shakhlo BOTIROVA. The principle of social partnership in teaching an innovative cluster of teacher education	62
Nigora SHARIPOVA. "Hayrat ul-abror" hikoyatlarining doston kompozitsiyasida tutgan o'rni	64

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Filologiya va Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.